“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	



O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNES SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH ASOSIDA BAHOLASH

Arzikulov Otabek Ali o'g'li

Jizzax politexnika instituti dotsenti
otabek_0791@mail.ru

Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi

Jizzax politexnika instituti talabasi
ruhshonaxudoyorova7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes (KO'B) sohasining iqtisodiyotdagi o'rnini, uning yalpi ichki mahsulot (YalM), bandlik, sanoat, xizmatlar va tashqi savdo sohaslaridagi ulushi chuqur tahlil qilingan. Maqolada 2023–2024-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida KO'Bning rivojlanish tendensiyalari aniqlangan hamda ularning vaqt bo'yicha dinamikasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, yalpi ichki mahsulot, bandlik, sanoat, eksport, import, mahsulot eksporti, chakana savdo, tendensiyalar, ekonometrik baholash.

Abstract: This scholarly article examines the role of small and medium-sized enterprises (SMEs) in the economic landscape of Uzbekistan. It provides an in-depth analysis of SMEs' contribution to gross domestic product (GDP), employment, industry, services, and foreign trade, based on data from 2023–2024.

Key words: small and medium-sized businesses, gross domestic product, employment, industry, export, import, trends, retail trade, product export / export of goods, econometric assessment.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается роль малого и среднего бизнеса (МСБ) в экономике Республики Узбекистан. Проведен всесторонний анализ доли МСБ в валовом внутреннем продукте (ВВП), занятости, промышленности, услугах и внешней торговле на основе данных за 2023–2024 годы.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, валовой внутренний продукт, занятость, промышленность, экспорт, импорт, тенденции, розничная торговля, экспорт продукции, эконометрическая оценка.

KIRISH

Kichik va o'rta biznes (KO'B) har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki iqtisodiy faoliyatning hududiy diversifikatsiyasi, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ichki bozordagi raqobat muhitini kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, O'zbekistonda KO'B subyektlari sonining yildan-yilga ortib borayotgani, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining barqaror o'sishi, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohaslarida hamda tashqi savdoda faol ishtirok etayotgani ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, soliq va kredit yengilliklari, hududiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari KO'B uchun qulay iqtisodiy muhit shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash va bu jarayonda ekonometrik modellash tirish yondashuvlaridan foydalanish maqsad qilingan. Tadqiqot orqali KO'B sohasining mavjud holati, asosiy dinamikasi, tarmoqlar bo'yicha faolligi hamda iqtisodiyotdagi rolini aniqroq aniqlash va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish rejalashtirilgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznes (KO'B) iqtisodiyotning tarkibiy elementi sifatida mamlakatlar rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, ayniqsa, sohaning tahliliy baholashida ekonometrik yondashuvlarning qo'llanilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda KO'Bning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash, shuningdek, siyosiy va institutsional omillar bilan bog'liqligini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon bankining mutaxassisi Thorsten Beck o'z tadqiqotlarida KO'B subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari ularning o'sish sur'atlari va iqtisodiy barqarorlikdagi o'rniga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Beck shuningdek, KO'B faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun kreditlash siyosati va moliyaviy infratuzilmaning rivojlangan darajasini muhim omillar qatoriga kiritadi. Shu bilan birga, Ayyagari, Demirgüç-Kunt va Maksimovlarning iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borgan tadqiqotlari KO'B subyektlarining YaIMga qo'shgan hissasini aniqlashda panel regressiya va vaqtli qatorlar tahlilidan foydalangan.

O'zbekiston kontekstida bu sohadagi chuqur ilmiy izlanishlar orasida M. A. G'ulomov va S. A. Umarovning ishlari ajralib turadi. Ular KO'Bning iqtisodiy faollikdagi o'rnini iqtisodiy o'sish, bandlik va eksportdagi ulushi orqali o'rganib, ushbu ko'rsatkichlar asosida ekonometrik model tuzish zarurligini asoslab bergan. Xususan, G'ulomov ishlab chiqargan statik ko'p omilli regressiya modeli orqali kichik biznes ko'rsatkichlari bilan YaIM o'sishi o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

Bundan tashqari, L. M. Batrakovaning Rossiya iqtisodiyoti misolida KO'Bni rivojlantirishdagi to'siqlarni o'rgangan tadqiqoti, mazkur sektorga hukumat siyosatining ta'sirini modellash orqali ochib bergan. U o'z tadqiqotida VAR va VECM modellaridan foydalangan holda, KO'Bdagi fiskal rag'batlar va soliq yengilliklarining vaqt o'tishi bilan qanday iqtisodiy natijalar berishini tahlil qilgan. Bu tajriba O'zbekiston sharoitida ham qiyosiy tahlil olib borish imkonini beradi.

Shuningdek, Mahmudova Nargiza tomonidan O'zbekistonda KO'B subyektlarining regional tahlili asosida ularning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri ARIMA va eksponensial silliqlash modellari orqali o'rganilgan. Bu yondashuv vaqt qatorlari asosida prognozlash imkonini berib, KO'B rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda qo'l keladi.

Xalqaro miqyosda esa, OECD tashkilotining "SMEs and Entrepreneurship Outlook" nomli nashrida KO'Bni baholashda indikatorlar tizimini yaratish, ularni statistik modellarga asoslash orqali mamlakatlararo qiyosiy tahlil yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, iqtisodiy turg'unlik davrida KO'Bning qay darajada bardoshli bo'lishini o'lchash uchun bayes metodlari va regressiyaviy o'zgaruvchanlik modellaridan foydalaniladi.

Umuman olganda, KO'Bni ekonometrik modellash tirish orqali baholash amaliyoti ko'plab ilmiy manbalarda statistik asosga ega tahlil vositasi sifatida qaraladi. Bu uslub tadqiqotchilarga nafaqat mavjud holatni tahlil qilish, balki iqtisodiy siyosatga ta'sir etuvchi tavsiyalar ishlab chiqish imkonini ham beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika agentliklari, Markaziy bank hisobotlari hamda Davlat soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasidan olindi. Tahlil qilish uchun ko'p omilli regressiya, korrelyatsion tahlil hamda ARIMA modeli qo'llanildi. Natijalar ekonometrik dasturlar (STATA va EViews) yordamida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda kichik va o'rta biznes nafaqat iqtisodiy o'sish, balki aholining bandligi va farovonligini ta'minlashning ham asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [15]. Shu sababli ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellar asosida baholash orqali:

kelajakdagi o'zgarishlarni bashorat qilish [17; 18],

mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish

muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, KO'B subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov choralari samaradorligini baholash ham ushbu tadqiqotning asosiy vazifalari qatoriga kiradi. Shu jihatdan, mazkur izlanish amaliyotga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqishda hamda iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kichik va o'rta biznes O'zbekiston iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri bo'lib, ayniqsa aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu subyektlarning hissasi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida farqli ko'rinishga ega. 2023–2024-yillarning dastlabki ma'lumotlari KO'B sektori faollik darajasining yuqoriligini ko'rsatmoqda. Biroq sanoat ishlab chiqarishi [11] va eksport [8] yo'nalishlarida ushbu sektorning nisbiy hissasi importga [9] qaraganda pastroq ekanligi aniqlanmoqda.



2024-yilning choraklik ma'lumotlari iqtisodiy ko'rsatkichlar tebranishining ma'lum darajada yuz berayotganini ko'rsatmoqda. Masalan, KO'Bning YalMdagi ulushi birinchi chorakda 42,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, to'rtinchi chorakda bu ko'rsatkich 54,3 foizga yetgan [1]. Sanoat ishlab chiqarishdagi ulush ham choraklar kesimida o'zgarib borgan: 1-chorakda 27,0 foiz, 2-chorakda 24,7 foiz, 3-chorakda 28,0 foiz va 4-chorakda 31,5 foizni tashkil etgan [11]. Ushbu tendensiyalar umumiy iqtisodiy o'sish fonida yuz bermoqda. Xususan, 2023-yilda iqtisodiy o'sish 6 foizni, 2024-yilning 1-choragida esa 6,2 foizni tashkil qilgan [12].

Kichik va o'rta biznes sektorining O'zbekiston iqtisodiyotidagi fundamental ahamiyati, avvalo, uning ikki asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichdagi – yalpi ichki mahsulot va bandlikdagi ulushi orqali namoyon bo'ladi.

2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotining 54,3 foizini ta'minlagan [1]. Ushbu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotida KO'B sektorining tovar va xizmatlar ishlab chiqarishdagi salmoqli o'rnini yaqqol aks ettiradi. Bu ulush yuz minglab kichik va o'rta korxonalar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat natijasidir (1-jadval).

1-jadval. Kichik va o'rta biznesning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2023-yil).

Ko'rsatkich	Qiymat (2023-yil)
YalMdagi ulushi (%)	54,3
Umumiy bandlikdagi ulushi (%)	74,0
Band bo'lganlar soni (mln kishi)	10,37
Shundan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari va o'z-o'zini band qilganlar (mln kishi)	8,95
Chakana savdo aylanmasi (trln so'm)	275,6
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (trln so'm)	369,4
Qurilish ishlari hajmi (trln so'm)	159,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari) ishlab chiqarish hajmi (trln so'm)	403,0
Mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi (mlrd AQSh dollari)	6,9 (yoki 7.1 OTB)
Umumiy eksportdagi ulushi (%)	28,5
Mahsulot (ishlar, xizmatlar) importi hajmi (mlrd AQSh dollari)	19,5
Umumiy importdagi ulushi (%)	50,1

2024-yilning choraklik ma'lumotlari kichik va o'rta biznesning (KO'B) yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibidagi ulushining quyidagi dinamikasini ko'rsatmoqda: I chorak – 42,7 %, II chorak – 47,5 %, III chorak – 53,8 %, IV chorak – 54,3 % [1]. Yil davomida kuzatilgan bu tebranishlar mavsumiy omillar yoki KO'B faolligining yirik korxonalar yoki davlat xarajatlariga nisbatan notekisligidan dalolat berishi mumkin. Yil boshidagi ulush pasayishi va ikkinchi yarmidagi o'sish KO'B an'anaviy faoliyat yuritadigan qishloq xo'jaligi [7], qurilish [6] yoki chakana savdo [4] kabi sohalardagi mavsumiy xususiyatlar bilan izohlanishi mumkin.

Garchi 2023-yildagi ko'rsatkich (54,3 %) nisbatan yuqori bo'lsa-da, u oldingi yillar bilan solishtirganda biroz pasaygan: 2019-yilda bu ko'rsatkich 55,3 %, 2020-yilda esa 54,8 % ni tashkil etgan [1].

2023-yilda KO'B sektorida O'zbekiston iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 74,0 % i ish bilan ta'minlangan [2]. Bu esa mutlaq ifodada 10 373 300 kishiga teng [3]. Ushbu ma'lumotlar KO'B sektorining mamlakatda asosiy ish o'rinlari yaratuvchi kuch sifatida muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Bunday ulushning YalMdagi ulushdan (54,3 % [1]) ancha yuqoriligi, odatda mehnat talab qiladigan sohalarda faoliyat yurituvchi mikro va kichik korxonalar sonining ko'pligi bilan izohlanadi.

2023-yildagi bandlik darajasi (74,0 % [2]) 2022-yilga nisbatan ozgina oshgan (73,9 % [2]), ammo 2019-yil darajasidan (76,2 % [2]) biroz past qolmoqda.

KO'B sektorining bandlikdagi (74,0 % [2]) va YalMdagi (54,3 % [1]) ulushlarini taqqoslash natijasida ushbu sektorda mehnat unumdorligi yirik korxonalarga nisbatan pastroq ekani aniqlanadi. Agar KO'B sektorida band bo'lganlarning 74 % i YalMning atigi 54 % ini yaratayotgan bo'lsa, bu shuni anglatadiki, bir xodimga to'g'ri keladigan YalM miqdori yirik korxonalarga nisbatan sezilarli darajada pastdir. Iqtisodiyotning qolgan 26 % band aholisi esa YalMning 46 % ini yaratmoqda.



Bu holat KO'B sektori, ayniqsa, xizmatlar [5], qishloq xo'jaligi [7] va savdo [4] kabi kamroq kapital talab qiladigan, lekin mehnat resurslariga tayanadigan tarmoqlarda to'planganligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu sektorda texnologik joriy etish darajasining pastligi yoki yirik firmalardagi kabi miqyos samarasiga erishish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan ham izohlanadi.

2023-yilda KO'B sektorida band bo'lgan 10,37 million kishining 8,95 million nafari yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari va o'z-o'zini band qilgan shaxslardan iborat bo'lib, bu mikro korxonalar ustunligini tasdiqlaydi.

Kichik va o'rta biznes faoliyatini iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo'yicha tahlil qilish, ularning konsentratsiyasi va operatsiyalar miqyosini aniqroq baholash imkonini beradi. 2023-yilga oid ma'lumotlar quyidagi jadvalda bayon etilgan (2-jadval).

2-jadval. Kichik va o'rta biznesning asosiy sohalar bo'yicha faoliyati (2023-yil).

Soha	Ko'rsatkich	Qiyamat (2023 y.)	O'lchov birligi
Sanoat	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	177 892,0	mlrd so'm
	Umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi	32,4	%
Qurilish	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi	159 285,9	mlrd so'm
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (2022 y.)	93 600,0	mlrd so'm
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (2021 y.)	77 900,0	mlrd so'm
Chakana savdo	Chakana savdo aylanmasi hajmi	275 629,8	mlrd so'm
	Chakana savdo aylanmasi hajmi (2022 y.)	229 200,0	mlrd so'm
	Chakana savdo aylanmasi hajmi (2021 y.)	186 800,0	mlrd so'm
Xizmatlar	Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	369 378,4	mlrd so'm
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Mahsulot (xizmatlar) hajmi	403 038,6	mlrd so'm

Kichik va o'rta biznes (KO'B)ning tashqi savdodagi ishtiroki tahlil qilinganda, bir nechta muhim holatlar aniqlanadi. Avvalo, KO'B eksportdagi ulushi 28,5 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich uning yalpi ichki mahsulotdagi (54,3%) va bandlikdagi (74,0%) ulushiga nisbatan ancha past ekani bilan ajralib turadi. Ushbu tafovut KO'B faoliyatining asosan ichki bozorga yo'naltirilganligini yoki eksportda yirik korxonalar ustunligini anglatadi. Shu bilan birga, KO'B importdagi ulushi 50,1 foizga teng bo'lib, bu ularning import qilinadigan mahsulotlarga – asosan uskunalar, xom ashyo va iste'mol tovarlariga – yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Bu holat tashqi savdo balansidagi disbalansni yuzaga keltiradi, chunki 2023-yil holatiga ko'ra import hajmi 19,5 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, eksport hajmi atigi 6,9 milliard dollar bo'lgan. Natijada, KO'B mamlakat joriy hisoblar balansida 8,6 foiz YalIM darajasidagi defitsitga sezilarli hissa qo'shgan (3-jadval).

3-jadval. Kichik va o'rta biznesning tashqi savdodagi o'rni (2023-yil ma'lumotlari).

Ko'rsatkich	Qiyamat (2023 y.)
KO'B eksporti (mln AQSh dollari)	6938,309
KO'B ning umumiy eksportdagi ulushi (%)	28,52
KO'B importi (mln AQSh dollari)	19 527,8
KO'B ning umumiy importdagi ulushi (%)	50,05

O'zbekistonda KO'B rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun regressiya tahlili, vaqt qatorlari tahlili, panel ma'lumotlar tahlili va avtoregressiv modellar qo'llaniladi [17, 18]. Modellashtirishda ADF testi va Yohansen testi kabi statistik usullardan foydalaniladi.

2010-2023 yillar ma'lumotlari [1-9, 11] asosida quyidagi ko'p omilli regressiya modeli ishlab chiqildi [17]:

$$SME_GDPT = \beta_0 + \beta_1 EMPt + \beta_2 INDt + \beta_3 EXPt + \beta_4 IMPt + \beta_5 INVt + \epsilon t \quad (1)$$

Natija: $SME_GDPT = 12.36 + 0.41 \cdot EMPt + 0.18 \cdot INDt + 0.15 \cdot EXPt + 0.08 \cdot IMPt + 0.22 \cdot INVt$ ($R^2 = 0.87$, $F = 24.8$, $p < 0.001$)

Eng kuchli ta'sir etuvchi omillar: bandlikdagi ulush ($EMPt$) va investitsiyalar hajmi ($INVt$).

KO'B rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2010-2023 yillar)



Vaqt qatorlari tahlili [18] quyidagi tendensiyalarni aniqladi (ma'lumotlar [1, 2, 8, 9, 11]):
YalMdagi ulushi: 52.5% (2010) → 55.3% (2019) → 54.3% (2023). $SME_GDPt = 51.8 + 0.62t - 0.03t^2$ ($R^2 = 0.81$)
Bandlikdagi ulushi: 74.3% (2010) → 78.2% (2016) → 74.0% (2023). $SME_EMPt = 74.1 + 0.85t - 0.07t^2$ ($R^2 = 0.83$)
Sanoatdagi ulushi: 26.6% (2010) → 39.6% (2017) → 32.4% (2023).
Eksportdagi ulushi: 13.7% (2010) → 27.2% (2018) → 28.5% (2023). $SME_EXPt = 14.1 + 1.78t - 0.05t^2$ ($R^2 = 0.89$)
Importdagi ulushi: Barqaror o'sish: 35.8% (2010) → 50.1% (2023). $SME_EMPt = 14.1 + 1.78t - 0.05t^2$ ($R^2 = 0.98$)

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, KO'B subyektlarining o'sish sur'atlari va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bevosita iqtisodiy siyosat, soliq yukining yengilligi, moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyati va infratuzilma holatiga bog'liq. Ekonometrik tahlillar ushbu sohada o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini aniqlab, istiqbolli prognozlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Kelgusida ushbu sohani rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari va kredit kafolatlarini takomillashtirish, regionlar kesimida maxsus KO'B infratuzilmasini yaratish, raqamli texnologiyalar asosida marketing va eksport salohiyatini oshirish lozim. Bundan tashqari, iqtisodiy siyosatda KO'B subyektlariga yo'naltirilgan barqaror strategiyalarni ishlab chiqish va ularni monitoring qilish uchun doimiy statistik nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari
2. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB). (2024). Asia SME Monitor 2024 - Volume I: Country Chapters (Uzbekistan).
3. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF). (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation—Press Release; and Staff Report.
4. Xusanov, R. (2023). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5, 26-38.
5. Razzaqov, A., & Aliyev, Y. (2024). Raqamlashtirish sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2, 112-125.
6. Ahunova, G. (2023). Mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish xususiyatlari. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar, 3, 189-196.
7. Jahon banki. (2024). Uzbekistan Overview: Development news, research, data.
8. Toshmatov, Z., & Yormatov, I. (2024). Kichik korxonalar faoliyatini ekonometrik modellashtirish orqali prognozlash. Ilmiy axborotnoma, 1, 65-78.
9. Fazliyev, S. (2023). Kichik biznes sohasida bandlikni modellashtirish va bashoratlash. Iqtisodiyot va ta'lim, 4, 45-59.
10. Valiyeva, D. (2024). Kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari. Moliya va bank ishi, 3, 112-126.
11. Ganiyev, Z., & Abdurahimova, Y. (2024). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy tajriba. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, 2, 87-99.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
